

CONTINUITY IN THE EDUCATIONAL PROCESS - A FACTOR IN THE TRAINING OF DOG SPECIALISTS

Bafo Mohinur,

Teacher of informatics and information technology at the 13th IDUM of Shofirkon district, Bukhara region

The effective work carried out within the framework of the third initiative is gaining importance in increasing the computer literacy and intellectual potential of young people. Interest in the use of innovative technologies in the educational system and attention to the introduction of modern methods are increasing day by day. The reason is that earlier the educational goal was focused on the acquisition and memorization of ready-made knowledge.

TA'LIM JARAYONIDAGI UZLUKSIZLIK – IT MUTAXASSISLARINI TAYYORLASH OMILI

Bafo Mohinur,

Buxoro viloyati Shofirkon tumani 13-IDUM informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi

Uchinchi tashabbus doirasida qilinayotgan samarali ishlar yoshlarning kompyuter savodxonligini, intellektual salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etyapti. Ta lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo'llashga qiziqish va zamonaviy usullarni joriy etishga e'tibor kun sayin kuchaymoqda. Sababi, ilgari o'quv maqsadi yoshlarning tayyor bilimlarni o'zlashtirib, yodlab olishiga qaratilgan edi.

Endi zamonaviy texnologiyalar ularni bilimni o'zi qidirib topishga, mustaqil xulosalar chiqarishga o'rgatmoqda. Shu bois, mamlakatimizda mavjud umumta lim maktablari negizida informatika va axborot texnologiyalarini chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktablar bosqichma-bosqich tashkil etilmoqda. O'quv jarayonida axborot savodxonligi o'qituvchi uchun ham, o'quvchi va talaba uchun ham muhim. Bunday bilimlarni o'zlashtirish bilan ular ma lumot izlash va yig'ish, axborot almashish usullarini bilish, ularni amalda qo'llashda hech qanday qiyinchilikka duch kelmaydi. Shu tufayli umumta lim maktablarining 100 nafar eng yaxshi informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchisini Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg armasi va IT park mablag'lari

hisobidan mukofotlash tizimi yo'lga qo'yildi. Ixtisoslashtirilgan IT maktablarni zamonaviy uskunalar, mebel, kompyuter texnikasi, shuningdek, o'quv adabiyotlari, uslubiy qo'llanmalar va boshqa vositalar bilan ta'minlash bo'yicha namunaviy loyiha hamda me'yorlar ishlab chiqildi. 2021-2022-o'quv yili davomida ushbu maktablarni to'liq ishga tushirish maqsadida yagona namunaviy konsepsiya ishlab chiqish, maktablarning o'quv dasturini xalqaro standartlarga muvofiq qayta ko'rib chiqish, universitet talabalarining malakaviy amaliyotni hududlarda o'tash tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha qator takliflar taqdim etildi. Mamlakatimiz zamonaviy ta'lim tizimida turli texnologiyalardan foydalanish o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish imkonini beradi. Shu maqsadda axborotkommunikatsiya texnologiyalarini o'qitishda ta'lim uzluksizligiga alohida e'tibor qaratilyapti. Ayni paytda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti qoshidagi oltita litseyda jami ikki yarim mingdan ziyod o'quvchi tahsil olmoqda. Shuningdek, Toshkent axborot texnologiyalari, Samarqand axborot texnologiyalari va Yangiqo'rg'on axborot texnologiyalari texnikumlari faoliyat ko'rsatyapti. Bugunga qadar imtihon asosida 569 nafar o'quvchi saralab olindi. 2021-yilda esa, hududlarda yana 11 ta shunday texnikum tashkil etiladi. Raqamli O'zbekiston - 2030 dasturini ishlab chiqish jarayoni ustida qizg'in ish ketmoqda.

Kelgusida raqamli universitetlarni tashkil etish bo'yicha ham qator ishlar amalga oshirilyapti. Xususan, Coursera (AQSh), EPAM (AQSh, Belarus) va Open University Malaysia (Malayziya) singari tashkilotlar bilan hamkorlik qilish hamda ulardan o'quv materiallarini olishga kelishildi. Bu bilan hududlardagi yoshlarning, jumladan, ayollar va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamining ishdan ajralmagan holda ta'lim olish orzusi ro'yobga chiqadi. Yosh avlodga ta'lim berishda zamonaviy axborot texnologiyalari xizmatidan yanada samarali foydalanish hamda yangi texnika va texnologiyalar bilan ishlashni o'rganish maqsadida amalga oshirilgan ishlardan biri masofadan o'qitish texnikasi va texnologiyasidir. U shu paytgacha mavjud bo'lgan ta'lim turlaridan ijobiy tomonlari bilan ajralib turadi. Jumladan, barcha o'quvchi va talabalar, umuman, ta'lim olishni xohlovchilarga yetakchi universitetlar, akademiyalar, institutlar, tayyorlov markazlari, kadrlarni qayta tayyorlash muassasalarida asosiy ta'lim va ish faoliyatidan ajralmagan holda qo'shimcha ta'lim olish imkoniyatini yaratadi. Masofaviy o'qitish shaklining dasturiy apparat kompleksini yaratish maqsadida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida masofaviy ta'limni boshqarish axborot tizimlari majmuasi hamda ta'lim kontentlarini yaratish va joriy etish loyihasi ishlab chiqilib, vazirlik tomonidan ekspertizadan o'tkazilgan.

Masofaviy ta'limni boshqarish bo'yicha axborot tizimining texnik topshirig'i, texnik loyihasi hamda TATUda masofaviy ta'limni joriy etish konsepsiyasi ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Tizim universitet strukturasi, talabalar, o'quv rejalari va dasturlarini boshqarish, o'quv materiallarini taqdim qilish, fanlarning o'quv topshiriqlarini hamda nazorat va imtihonlarni, hisobotlarni nazorat qilish kabi asosiy modullardan iborat. Tizimning imtihonlarni boshqarish va hisobotlarni shakllantirish modullari, reyting daftarchasini shakllantirish va talabalarni kursdan-kursga o'tkazish funksiyalarini yaratish ishlari olib borilmoqda. 2020-2021- o'quv yilida o'nta fanning masofaviy ta'lim kontentlari o'zbek va rus tillarida tayyorlandi. Fanlar bo'yicha jami 320 ta videodars tasvirga olinib, montaj ishlari yakunlandi. Taqdimot materiallari, nazariy bilimlar bo'yicha ma'ruza matnlari va bilimlarni nazorat qilib borish bo'yicha test savollari to'plami tayyorlandi. Masofaviy ta'lim kontentlari fanlar va mavzular kesimida masofaviy ta'lim platformasiga joylandi. 2021- yilda Raqamli texnologiyalar o'quv markazlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish uchun Janubiy Koreyaning Invil dasturi tajribasini o'rganish, shu orqali o'quv markazlarining rivojlanish dasturini ishlab chiqib, ikki-uchta pilot markazda tajribasinovdan o'tkazish, markazlarda shu yil davomida yigirma ming nafar tinglovchini o'qitish, xorijiy va mahalliy IT ekspertlarni o'quv markazlariga keng jalb etish kabilar rejalashtirilgan. Hozir IT sohasida yiliga o'rtacha besh mingdan ortiq oliy ma'lumotli kadr yetishib chiqadi. Shundan uch ming uch yuz nafari Toshkent axborot texnologiyalari universiteti hissasiga to'g'ri kelyapti. O'tgan yili Andijon, Farg'ona, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida IT park filiallari tashkil etildi. IT park rezidentlari soni 440 dan oshdi. Ular tomonidan mingga yaqin yangi ish o'rni tashkil etildi. Dasturiy mahsulotlar va xizmatlar hajmi bir trillion so'mdan oshdi. IT park filiallarida startap loyihalarni amalga oshirish, yoshlarni dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarishga keng jalb qilish bo'yicha ishlar tizimli ravishda olib borilmoqda.